

RAQAMLI BANK TUSHUNCHASI VA UNI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xikmetov Nodirbek Ikromovich

Annotatsiya

Mazkur tezisdan bank texnologiyalari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari chuqur o'rganilgan, tahlil qilingan va mualliflik fikrlari bildirilgan. Shuningdek, bugungi kunda dunyo banklarida foydalanib kelinayotgan bank texnologiyalari keltirilgan va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda afzalliklari ochib berilgan. Bundan tashqari, bank texnologiyalaridan samarali foydalanish va ularning samaradorligini yanada oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank, bank texnologiyalari, axborot texnologiyalari, mobil bank, kredit, risk, kompyuter.

KIRISH

Bank faoliyatini ilmiy-texnik taraqqiyotning so'nggi yutuqlarini jadal tatbiq etmasdan modernizatsiya qilish mumkin emas. Jahon amaliyotidan ko'rinib turibdiki, ilmiy-texnik taraqqiyot va yangi axborot texnologiya (IT)larining jadal o'sishi bankning jozibadorligini umumiy baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologik jarayonning rivojlanishi nafaqat xujjatlarni rasmiylashtirish va kassa operatsiyalarini o'tkazish tezligini oshirishga, balki mijozlar doirasini kengaytirishga ham imkon beradi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

“Raqamli bank” – innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassada xizmat ko'rsatmay) masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. O'z navbatida “Bank texnologiyasi” atamasi banklarga o'z mijozlariga xavfsiz, ishonchli va arzon narxlarda yaxshiroq xizmatlarni taklif qilishi hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishishi uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni anglatadi. Bank texnologiyasi, shuningdek, demografik, psixografik va tranzaksion ma'lumotlar kabi mijozlar tafsilotlarini saralash orqali mijozlar xatti-

harakatlari modellarini ochishda zamonaviy kompyuter algoritmlaridan foydalanish faoliyatini o'z ichiga oladi.

Nazariy jihatdan, bank texnologiyasi, yakka tartibdagi intizom emas, balki moliya risklarni boshqarish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter va marketing bilimlari kabi bir-biridan farq qiladigan bir nechta yo'nalishlarning birlashish natijasida tashkil etiladi hamda uning tarkibiy elementlarini quyidagicha ifodalash mumkin [2]:

1. Axborot texnologiyalari;
2. Aloqa-kommunikatsiya texnologiyalari;
3. Kompyuter bilimlari;
4. Moliya va risk menejmenti;
5. Marketing bilimlari.

So'ngi vaqtlarda kompyuterlar shu darajada takomillashib bormoqdaki, bu banklarga faqat orzu qilishlari mumkin bo'lgan salohiyatlarni hamda bank mijozlariga katta imkoniyatlarni bermoqda. Banklarga yangi texnologiyalar olib kelgan o'zgarishlar banklarning rahbarlari, xodimlari va mijozlariga katta ta'sir ko'rsatibgina qolmay, bank mahsulotlari va xizmatlarini har qachongidan ham qulayroq hamda samarali yetkazib berishga imkon beradi va shu bilan yangi raqobat asoslarini yaratadi.

Bank texnologiyalariga individual operatsiyalar va umuman bank uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini yaratish, operatsiyalarni amalga oshirish uchun vositalar to'plami (shu jumladan texnik vositalar), masalan, plastik kartalar, mijozlarga interaktiv xizmat ko'rsatish yoki boshqa har qanday narsalar kiradi. Bank texnologiyalari sohasiga avtomatlashtirish vositalari va axborot tizimlari, zamonaviy to'lov tizimlari bilan ishlash, tarmoqlararo o'zaro aloqalarni amalga oshirish, boshqaruv texnologiyalari va havfsizlik tizimi, telekommunikatsiyalar va boshqa ko'p narsalar kiradi, ularsiz bugungi kunda bankni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bank texnologiyalarisiz hozirgi kunda bank faoliyatini yuritish bilan bog'liq har qanday muammolarni hal qilish va jarayonlarni boshqarishni tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki so'nggi bir necha yil ichida qarorlar qabul qilish tezligiga bo'lgan talablar keskin o'zgarib ketdi, bank operatsiyalari jarayonida ishlatiladigan kompyuter dasturiy ta'minotlari takomillashib, ma'lumotlar hajmi oshdi.

Kelajakda rivojlanayotgan va rivojlangan dunyoda ko'proq texnologiyalar joriy



etilishi hamda qo'llanilishi kuzatiladi. Texnologiyalarning rivojlanishi bank sektorini rivojlantirishda katta yordam beradi.

Automated Teller Machine (ATM). Bu avtomatlashtirilgan bankomat bo'lib, u butun dunyoda qo'llaniladigan texnologiyadir. Bankomat mijozlarga har qanday vaqtda naqd pul kerak bo'lganda pulni naqd qilish imkoniyatiga ega bo'lishiga yordam beradi. Mijozni identifikatsiyalash uchun bank tomonidan taqdim etiladigan PIN- koddan foydalaniladi. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun mijoz bankda hisob raqamiga, debet yoki kredit kartaga ega bo'lishi kerak. Pulni dunyoning istalgan nuqtasidan olish mumkin [3].

Mobile Banking. Mobil bank – bu mijozlar uchun taqdim etilayotgan bank sohasida qo'llaniladigan eng yangi texnologiyalar. Mijozda aqlli telefon, planshet yoki shaxsiy raqamli qurilma bo'lishi kerak. Windows, Android, IOS va boshqa uyali telefonlarning operatsion dasturlariga mos keladigan dastur ishlab chiqilgan. Mobil dastur to'g'ridan-to'g'ri mobil qurilmaga yuklab olinadi. Mijoz mobil internet yoki Wi-Fi tarmog'ida faol internet aloqasiga ega bo'lishi kerak, shunda mobil bank xizmatidan foydalanish mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank sektorida raqamli bankingni iqtisodiy xavfsizlik sohasida kompleks chora-tadbirlarni ta'minlamasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Bu bilan iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish maqsadida moliya bozorini tashkil etish zaruriyati birinchi o'ringa chiqadi. Tijorat banklari raqamli bankingni interfeysining qulayligi foydalanuvchilarga katta ahamiyat kasb etadi. Foydalanuvchi o'ziga kerakli amallarni tezroq topa olishi bank tizimiga ishonchni uyg'otadi va bank xizmatlarini boshqa foydalanuvchilarga tavsiya etish kuzatiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bank sohasida zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va ularning dasturiy ta'minotlaridan foydalanish nafaqat bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini beradi, balki, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdordigini oshirish, ortiqcha vaqt sarfini kamaytirish kabi ijobiy ta'sirlari ham mavjud. O'zbekiston tijorat banklarida raqamli banking



xizmatlarini ko'rsatish rivojlangan davlatlar banklaridagi darajada taraqqiy etmagan va me'yoriy-huquqiy jihatdan kuchli ta'minlanmagan. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risidagi nizomda ham bugungi bank xizmatlari imkoniyatlarining huquqiy jihatlari aks ettirilmagan. Raqamli banking tijorat bankining ajralmas qismi bo'lishini ta'minlash lozim. Bu ma'lumotlarning xavfsizligini va ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olgan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dubinin M.V. Bank texnologiyalari: mohiyati, rivojlanish tarixi va istiqbollari // Moliya va kredit. No 34 (274), 2017. – 58 b.
2. Tarasova V.I. Mintaqalararo bank va moliyaviy texnologiyalar markazi / Iqtisodiyotning real sektori uchun bank va moliyaviy texnologiyalar: maqolalar to'plami, ed. – M. 2020. – 134 b.
3. Galagan A.A. Savdogardan bankirgacha: Rossiya tadbirkorligi tarixi. – M.: Os-89, 2017. – 167 b.
4. Drozdov V.V., Vorobyova Yu.F. Kapitalizmdan oldingi davrda bank ishi / Iqtisodiyot tarixi va tarixshunosligi: maqolalar to'plami, ed. – M.: "Iqtisodiyot", 2013. – 69 b.
5. Maslennikov Yu.S. Bank ishining texnologiyasi va tashkil etilishi: nazariya va amaliyot. – M.: "DEKA", 2018. – 431 b.